



ONA TILI DARSLARIDA GAP BO'LAKLARINI TAHLIL QILISHNING AHAMIYATI (MATNLAR USTIDA ISHLASH)

Oqmonova Sevinchoy Olloyov qizi

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Turkiy tillar
fakulteti O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 2-bosqich
talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8010093>

ARTICLE INFO

Received: 28th May 2023

Accepted: 05th June 2023

Online: 06th June 2023

KEY WORDS

Kesimlik shakllari, pedagogik
innovatsiya, fraziologik
birikma, otli birikma,
to'ldiruvchi, sifatlovchili
birikma.

ABSTRACT

Ushbu maqolada gap bo'laklarining tahlil qilinisdagi o'ziga xosligi ifodalangan. Gap tarkibida kelib, gapning kesimlik darajasini shakllanishida ishtirok etadigan gap bo'laklarining qo'llanilish o'rinlarini aniqlashda qo'l keladi. Ona tili darslarida gap bo'laklari bilan ishlash ish o'quvchilarning ularni to'g'ri anglab etishi va gapda qo'llanilgan holatlarni kuzatishlari va to'g'ri topishlari uchun katta bir zamin yaratadi. Shuningdek, ularning to'g'ri tavsifi qoidasini ishlatilish o'rinlari gapdagi qaysi bo'lak vazifasida kelish xususiyatiga ko'ra ham ularni bir-biridan ajratish, farqlay olish katta bir muhim vosita bilan bilan amalga oshiriladi.

Ona tili darslarni tashkil etuvchi o'qituvchining pedagogik mahorati, axborot kommunikatsiyalaridan foydalanishi, pedagogik innovatsiyalar bilan ishlashi nazarda tutiladi. Maktab darsliklari tarkibida keltirilgan o'quv matnlari mashqlari, topshiriqlarining tarkibiy qismlari so'zlar, gaplar, iboralar va ularga qo'shni qo'shma gaplarning tahlil etilishida gap bo'laklarining bevosita ahamiyati katta.

Gap bo'laklari o'zaro so'zlarni bir-biriga bog'lash, gapning mazmunini yuzaga keltirishda vosita bo'lib xizmat qilib, gap kesimni shakllantiruvchi vosita bo'laklari sanaladi. Gap bo'laklari bosh bo'laklari ikkinchi darajali bo'laklarga bo'linadi. Bunda, bosh bo'laklariga va ularning o'zaro munosabati kirishi yoki kesimning o'zaro gapning markazi bo'lish xususiyatiga qarab belgilanadi. Ikkinchi darajali bo'laklar ega kesim to'ldiruvchi aniqlovchi hol tarzda amalga oshirilib, gap bo'laklari tarkibida kelgan so'zlar bilan ifodalanadi. Ular o'zlarining so'rog'i, qanday vaziyatda holatda kelishi ko'ra bir-birdan farqi jihatlari tashkil etadi. Ona tili o'qitishda gap bo'laklarini to'g'ri anglash va ularni gapda qo'llanilgan holatlarni to'g'ri topish va izohlash tahlil jarayonining muhim qismi sanaladi. Asosan, gapning markazi kesim hisoblanadi. Boshqa bo'laklar kesimga ergashib keladi. Kesimning ham bir necha kesimlik shakllarini hosil qiluvchi qo'shimchalari bilan ifodalanishi mavjud. "Gap bo'laklari grammatikaning sintaksis bo'limida o'rganiluvchi muhim va katta mavzulardan biridir. Gap bo'laklari bevosita morfologiya bilan bog'liq bo'lib, 6ta so'z turkumlarini o'rganmagunga qadar gap bo'laklarini tushunish murakkablik tug'dirishi mumkin. Shu boisdan yuqorida



ko'rsatilgan 16 bo'limlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak morfologiya bo'limi sintaksis bo'limidan avval o'rganilishi ko'rsatib o'tilgan. Chunki, biz gaplarni tahlil qilayotgan paytda bu bo'limlarning har ikkisiga ham bir vaqtning o'zida murojaat qilamiz. O'zbek tilida bosh hamda ikkinchi darajali bo'laklari mavjud hisoblanadi: ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi va hol. Gapning asosiy ma'no anglatuvchi qismi deb kesim qaraladi va bazi hollarda faqatgina kesimning o'zidan ham muloqot manbayi sifatida foydalanish mumki".[1]

Gap bo'laklarning birgina so'z bilan qo'llana olmasligi mumkin lekin kesimning birgina o'zi qo'llanilishiga ko'ra alohida bir gap bo'lishi mumkin. misol uchun: Keldim. Gap bo'laklarni tahlil etishdan matnlarning o'rni va ahamiyati. Gap tarkibida kelayotgan so'zlarning kirish qismida yoki gapning oxiri ortasida qo'llanilishiga ko'ra ular o'zining pozitsion xususiyatini o'zgartirmaydi, qolaversa, gap bo'laklari o'zaro bir-birini to'ldirib, bir-biri bilan aloqaga kirishiga xizmat qiladi. Misol uchun: Chiroyli olmani yedim. Yedim bu yera kesim bo'lib, harakat va holatni ifodalashiga ko'ra xabar ma'nosini berib turibdi. Yemoq fe'li va unga - m shaxs-son qo'shilishi natijasida yedim tasdiq shakl xabar maylidagi fe'lning shakllanishi hosil bo'lgan. Olmani yedim, nimani? olmani, to'ldiruvchi hosil bo'lishi bilan sizga to'ldiruvchi - kimdan, nimadan, kimni, nimani, kim bilan, nima bilan va shunga o'xshagan so'roq va qo'shimchalarni hodil qialdi. To'ldiruvchi to'g'ridan - to'g'ri kesimga bog'lanish xususiyatga ega. Misol uchun: Olmani yesim, eshikni ochdim, uni ko'rdim kabi. Bu yerda shirin so'z esa sifatlovchi-aniqlovchi bo'lib, olmaning maza ta'miga urg'u bermoqda. Sifatlovchi aniqlovchi va qaratqich aniqlovchi o'rtasidagi munosabat ham shunday ifodalaniladi sifatlovchi aniqlovchi ya'ni o'zining sifatlashishi, xarakter xususiyati, rangi, maza ta'mi yoki xususiylik ko'ra ifodalanadi. qaratqich-aniqlovchi esa faqat kishilarni e'tiborini tortish va qaratishga undaydi. Shunga ko'ra qaratqich aniqlovchi ning qo'shimchasi bilan ifodalanadi.

Gapda bundan tashqari hol kabi bo'laklar ham mavjud bo'lib, hovlining gapdagi o'rni katta bir strategik muhim vosita hisoblanib, kesim bilan o'zaro aloqadorligi hosil qiladi. Unda asosan, holni bir necha ma'no turlarini ko'rish mumkin. Vaziyat holi, payt holi va hakoza. Hol ham bir necha so'z va so'zlardan iborat bo'lib, ifodalanishi mumkin. Misol uchun: Yig'lagancha uyga kirib ketdi, qay holatda uyiga kirib ketdi. Ba'zan ravish ba'zan hol kabi so'roqlarni qamrab oluvchi so'zlar va ularning ifodali yig'indisi gap tarkibida o'zaro qo'llanilishi ko'ra gap bo'laklarini tashkil etadi. Gaplarni, matnlarni o'zaro, tahlil etishda gap bo'laklarning o'zaro aloqa kirishini tahlil jarayonida yuzaga keladigan ko'rinishi mumkin. Gap bo'laklarini o'zaro bir-birga bog'lashda egalik qo'shimchalari ham bevosita xizmat qilib, keldim, kelding, keldi shaklda ifodalanishi mumkin. Egalik qo'shimchalari shaxs-son, zamon, mayli ularning barchasi sintaktik qoshimchalar hisoblanadi. "Ma'lumki, tilshunoslikka oid adabiyotlarda hozirgacha nisbat kategoriyasining yagona ta'rifi yo'q. Chunki, mantiqiy va lisoniy kategoriyalarni bir xil deb qarash natijasida grammatik ega va leksik subyekt bir xil deb tushuniladi hamda ish-harakat yoki jarayonning yo'naltirilganligi turlicha izohlaniladi. Xususan, V.Z.Panfilovning yozishicha, morfologik va leksik qatlam birliklari o'rtasidagi farqqa yetarlicha ahamiyat berilmagan. Shu bois mantiqning asosiy qonunlariga tayangan holda nisbat kategoriyasi mazmunini tushunishda ayrim qiyinchiliklar tug'iladi, ya'ni Grammatik subyekt va grammatik obyekt o'rtasida farq bo'lishiga qaramay ular aynan bir xil deb qaraladi".[2]



Fe'l bir so'z va bir necha so'zlardan iborat bo'lib, yetakchi fe'l va ko'makchi fe'l vazifalarini bajarishi mumkin. Gapning markazi kesim bo'lib, kesimni yakka o'zi ham bir gap bo'lib ishlatilishi mumkin. Matnlar tuzilishiga ko'ra katta ya'ni mikro-makro matnlarga bo'lishiga ko'ra hajman, shaklan matn tarkibida kelgan so'zlarni ifodasiga ko'ra bo'linadi. Aksariyat hollarda mikro matnlarda ko'proq so'zlarning kam yoki qisqa ekanligini sezish mumkin. Gapning kesimlik darajasini shakllantirishda asosan, shaxs-son va zamon qo'shimchalari ham o'zaro aloqadorligi tashkil etadi. Zamon qo'shimchalari qo'llanishiga ko'ra, o'tgan zamon, hozirgi zamon, kelasi zamonda ifodalab keladi. Kelasi zamon qo'shimchalari asosan, orzu-istak ma'nolaridan tashqari, kelgusida kutilayotgan voqea-hodisalarni ifodalaydi. Misol uchun: Qilinadi, qilinajak, qilinsa edi. Ba'zi paytlarda ba'zi so'zlar o'zaro har bir zamonga ham aloqador bo'lishi mumkin. Hozir qilinsa edi, o'tgan zamonda qilinsa edi, kelajakda qilinsa edi kabi. Hozirgi zamon, kelasi zamon, o'tgan zamon so'zlarni ifodalanishi ham gap bo'laklari tarkibidagi so'zga bog'lanishiga xizmat qiluvchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ona tili darslarida gap bo'laklarini tahlil qilishda ularning gapda tutgan o'rni, so'roqlarga javob bo'lishi yuzasidan to'g'ri tahlilni amalga oshirish lozim. Gapning markazi hisoblanadigan kesimning ifoda shakllari hamda kesimlik shakllarini ham mukammal o'rganishgina tahlilning aniq va sof bo'lishini ta'minlab beradi. Gapda ikkinchi darajali bo'laklar va bosh bo'laklarning o'zaro aloqaga kirishuvi yuzasidan boshlang'ich bilimlarga tayangan holatda gaplarni tahlil qilish, tahlil sifatini pasaytiradi. Bunga sabab, maktab darsliklarining sinf soatlari ortgani sari mavzularning murakkablik jihati ham bir pog'ona oshaveradi.

References:

1. Sapparbayeva Gulandom Masharipovna, Shamuratova Bonu Erkinboy qizi. "O'zbek tilida gap bo'laklarining o'rni" maqola. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali - 2023
2. Azatova Nodira Anvarbek qizi. Kesimi tobe sifat bilan ifodalangan gaplar tahlili. Academic research in educational sciences – 2021